

“Islomda ekstremizm va terrorizmga o‘rin yo‘q”

2019 yil 31 yanvar kuni institut professor-o‘qituvchilari va talaba-yoshlari ishtirokida “Islomda ekstremizm va terrorizmga o‘rin yo‘q” mavzusida o‘tkazilgan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor Q.Shavazov, Mirzo Ulug‘bek tumani imom xatibi Mamatov Akbarali Qodirovich, “Gidromelioratsiya” fakulteti dekani A.Fatxullayev, dekan muovnlari, professor-o‘qituvchilar hamda talaba-yoshlar ishtirok etdi. Shuningdek, tadbirda professor-o‘qituvchilar va talaba-yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirishga harakat qilayotgan turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish, zarur vaqtda ana shunday kuchlarga qarshi ma‘rifat ilmi bilan qarshi kurashish kerakligini tushuntirishdan iborat ekanligi qayd etildi. Tadbir davomida “Islom: mohiyat va talqin” nomli film namoyish etildi. Tadbir so‘ngida talabalar tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar javob berdilar. Talaba-yoshlar tomonidan tadbir tashkilotchilariga minnatdorchilik bildirilib, buyuk kelajakni qurish yo‘lida oliy maqsadlar sari og‘ishmay mehnat qilishlari haqida gapirdilar.



GM fakulteti dekan o‘rinbosari X.Tuychiyev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov